XALQ DEPUTATLARI OLOT TUMANI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-87-164-2-31-K/23 Olot tuman hokimligi

Olot tumani bo‘yicha 2024-yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429- va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-sonli Farmoni hamda viloyat soliq boshqarmasining 2023-yil 12-dekabrdagi 19/10-106557-sonli xatiga asosan Olot tumani bo‘yicha yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer soliqlarining 2024-yil uchun soliq stavkalarini tartibga solish maqsadida,

Xalq deputatlari tuman Kengashi
QAROR QILADI:

1. Viloyat soliq boshqarmasining 2023-yil 12-dekabrdagi 19/10-106557-sonli xatiga asosan Olot tumani bo‘yicha yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligida mo‘ljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq miqdori 29 mln.so‘m 880 ming hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasining mutlaq miqdori 262,4 so‘m belgilanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (F.Davronov) hamda tuman soliq inspeksiyasi (A.Ergashov)ning mahalla fuqarolar yig‘inlarining iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda kelgusi yil uchun belgilangan tuman mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha 2024-yilda tuman bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarning bazaviy yer solig‘i stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

3. Mahalla fuqarolar yig‘inlarining iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 2024-yilda Olot tumani uchun mutloq miqdorda belgilangan yer solig‘ining bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mahalla fuqarolar yig‘inlarining iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) 2024-yilda Olot tumani uchun mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari Olot tuman Kengashlari 2022 yil 30 dekabrdagi

VI-70-154-2-31-K/22-sonli qarorining 1- va 2-ilovasi 2024-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Tuman hokimligi apparati matbuot xizmati (Sh.Sharobov) hamda “Olot hayoti” gazetasi tahririyati (H.Bozorov) bilan birgalikda ushbu qaror bilan ma’qullangan Olot tumani bo‘yicha 2024-yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkalarini “Olot hayoti” gazetasida hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilsin.

7. Mazkur qaror bajarilishining nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **N.Nematova**

Xalq deputatlari Olot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-164-2-31-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 2024-yilda Olot tumani uchun mutloq miqdorda belgilangan yer solig‘ining bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T.R	MFY nomi	Yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi *(1 gektar uchun, so‘mda)*
1	Qumkashon MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
2	Chovdur MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
3	Qirlishon MFY	**1,18**	**35 258 400,00**
4	Bayot MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
5	O‘zbekiston MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
6	Kul Chovdur MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
7	Kattabayot MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
8	Qirtay MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
9	Xalkobod MFY	**0,98**	**29 282 400,00**
10	Muxtor MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
11	Denov MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
12	Nurobod MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
13	Eski Olot MFY	**0,98**	**29 282 400,00**
14	Asajam MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
15	Yoshbotir MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
16	Pichoqchi MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
17	Navro‘z MFY	**0,98**	**29 282 400,00**
18	Davlatboy MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
19	Balandmachit MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
20	Usmonshayx MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
21	Ma’rifat MFY	**0,98**	**29 282 400,00**
22	Arabxona MFY	**1,18**	**35 258 400,00**
23	Bo‘ston MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
24	Bo‘ribek Chandir MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
25	Oqoltin MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
26	Soyinqorovul	**0,95**	**28 386 000,00**
27	Xidreyli MFY	**0,95**	**28 386 000,00**

28	G‘anchi Chandir MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
29	Jayhunobod MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
30	Xalifa MFY	**0,98**	**29 282 400,00**
31	Solaqorovul MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
32	Xosabo‘yi MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
33	Dilkor MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
34	Opshoq MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
35	Burjok MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
36	Shayxlar MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
37	Kesakli MFY	**0,95**	**28 386 000,00**
38	Bunyodkor MFY	**0,98**	**29 282 400,00**

Xalq deputatlari Olot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-87-164-2-31-K/23-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) 2024-yilda Olot tumani uchun mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo‘laniladigan koeffitsiyentlar

T.R	**MFY nomi**	**Jismoniyshaxslaruchun yer solig‘istavkasi 2024yiluchun**	
		Koeffitsent miqdori	**Soliq summasi** *(1 kv.muchun, so‘mda)*
1	Qumkashon MFY	**0,90**	**236,16**
2	Chovdur MFY	**0,90**	**236,16**
3	Qirlishon MFY	**0,90**	**236,16**
4	Bayot MFY	**0,90**	**236,16**
5	O‘zbekiston MFY	**0,90**	**236,16**
6	Kul Chovdur MFY	**0,90**	**236,16**
7	Kattabayot MFY	**0,90**	**236,16**
8	Qirtay MFY	**0,90**	**236,16**
9	Xalkobod MFY	**0,92**	**241,41**
10	Muxtor MFY	**0,90**	**236,16**
11	Denov MFY	**0,90**	**236,16**
12	Nurobod MFY	**0,90**	**236,16**
13	Eski Olot MFY	**0,92**	**241,41**
14	Asajam MFY	**0,90**	**236,16**
15	Yoshbotir MFY	**0,90**	**236,16**
16	Pichoqchi MFY	**0,90**	**236,16**
17	Navro‘z MFY	**0,92**	**241,41**
18	Davlatboy MFY	**0,90**	**236,16**
19	Balandmachit MFY	**0,90**	**236,16**
20	Usmonshayx MFY	**0,90**	**236,16**
21	Ma’rifat MFY	**0,92**	**241,41**
22	Arabxona MFY	**0,90**	**236,16**
23	Bo‘ston MFY	**0,90**	**236,16**
24	Bo‘ribek Chandir MFY	**0,90**	**236,16**

25	Oqoltin MFY	**0,90**	**236,16**
26	Soyinqorovul MFY	**0,90**	**236,16**
27	Xidreyli MFY	**0,90**	**236,16**
28	G‘anchi Chandir MFY	**0,90**	**236,16**
29	Jayhunobod MFY	**0,90**	**236,16**
30	Xalifa MFY	**0,92**	**241,41**
31	Solaqorovul MFY	**0,90**	**236,16**
32	Xosabo‘yi MFY	**0,90**	**236,16**
33	Dilkor MFY	**0,90**	**236,16**
34	Opshoq MFY	**0,90**	**236,16**
35	Burjok MFY	**0,90**	**236,16**
36	Shayxlar MFY	**0,90**	**236,16**
37	Kesakli MFY	**0,90**	**236,16**
38	Bunyodkor MFY	**0,92**	**241,41**